

ERTAKTERAPIYANING PSIXOLINGVISTIK VA LINGVOMADANIY ASOSLARI: TRANSMILLIY QO'SHMA TA'LIM DASTURLARIDA TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MEXANIZMI SIFATIDA

Rohilabonu G'o'chchiyeva

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

tayanch doktoranti

E-mail: rguchchiyeva@gmail.com

93 997 36 26

Annotatsiya. Mazkur maqolada ertakterapiyaning psixolingvistik va lingvomadaniy asoslari tahlil qilinib, uning transmilliy qo'shma ta'lim dasturlarida ta'lim sifatini ta'minlash mexanizmlaridan biri sifatidagi ahamiyati yoritiladi. Tadqiqotda ertaklarning psixologik, kognitiv va kommunikativ rivojlanishga ta'siri, shuningdek ularning bolalar tafakkuri, emotsional holati hamda narrativ kompetensiyalarini shakllantirishdagi roli ko'rib chiqiladi. Psixoanalitik nazariya doirasida ertak syujetlari shaxsning ichki kechinmalari va ijtimoiy tajribalarining ramziy ifodasi sifatida talqin qilinadi. Tadqiqot jarayonida o'quvchilarning ertak yaratish faoliyati orqali ularning psixolingvistik va kreativ fikrlash qobiliyatlari rivojlanishi kuzatildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ertakterapiya nafaqat psixologik qo'llab-quvvatlash vositasi, balki til o'rganish, madaniy qadriyatlarni anglash hamda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda samarali pedagogik yondashuv hisoblanadi. Mazkur yondashuv transmilliy qo'shma ta'lim dasturlarida innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar. Ertakterapiya, psixolingvistika, lingvomadaniyat, psixoanalitik yondashuv, narrativ tafakkur, kognitiv jarayonlar, ramziy tafakkur, emotsional rivojlanish, kommunikativ kompetensiya, transmilliy qo'shma ta'lim.

Ertakterapiya bir nechta muhim funksiyalarni bajaradi: diagnostik funksiyasi orqali bolaning psixologik holatini aniqlash hamda mavjud muammolarni hal etish yo'llarini belgilash imkonini beradi; prognostik funksiyasi bolaning kelajakdagi xatti-harakatlari va muayyan vaziyatlardagi ehtimoliy xulq-atvorini oldindan taxmin qilishga xizmat qiladi; tarbiyaviy funksiyasi ertak qahramonlari timsolida bolaning xulqini ijobiy tomonga yo'naltirishni nazarda tutadi; korreksion funksiyasi esa ertak asosida olib borilgan ta'limiy jarayon natijasida erishilgan o'zgarishlarni namoyon etishini L.Ruban¹⁹ alohida ta'kidlaydi. Shuningdek, H.Hohr²⁰ga ko'ra, inson tomonidan hikoya qilinadigan ertak syujetlari uning real hayotida yuz berayotgan yoki kechirilayotgan tajribalar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular shaxsning ongli yoki ongsiz ravishda boshdan kechirayotgan voqeliklarini ramziy tarzda aks ettiradi.

Psixoanalitik nazariya asoschisi sifatida, avvalo, Zigmund Freyd tilga olinadi. Shu bilan birga, Otto Rank, Karl Gustav Yung, Alfred Adler, Anna Freyd, Erik Erikson, Jak Lakan kabi olimlar ham ushbu yo'nalish rivojiga katta hissa qo'shib, o'z ilmiy maktablarini shakllantirganlar. Freyd tomonidan ishlab chiqilgan psixoanalitik yondashuv inson xulq-atvori va shaxs rivojlanishini turli tarixiy bosqichlarda turlicha talqin qilish imkonini beradi.

¹⁹ Ruban, L. (2016). The art of creating therapeutic fairy tales. Pedagogical sciences: theory, history, innovative technologies. Sumy, 5(59), 335-343 [in Ukrainian].

²⁰ Hohr, H. (2000). Dynamic aspects of fairy tales: social and emotional competence through fairy tales. Scandinavian journal of educational research, 44(1), 89-103. <https://doi.org/10.1080/713696665>

Dastlab bu yondashuv psixik kasalliklarni davolashga qaratilgan amaliy usul – psixoanaliz sifatida vujudga kelgan bo'lsa, keyinchalik mustaqil nazariya sifatida shakllangan. Tushlarni tahlil qilish metodiga tayangan Freyd inson xatti-harakatlari va shaxsiyati ong osti jarayonlari bilan boshqarilishini ta'kidlaydi. U shaxs xulqining asosida tug'ma instinktlar, xususan agressiya va jinsiy mayllar muhim rol o'ynashini qayd etadi. Shuningdek, u shaxs va xulqni izohlashda to'rtta asosiy komponentni ajratadi: topografik model, strukturaviy model, psixoseksual rivojlanish bosqichlari hamda himoya mexanizmlari deydi G.Sağlık²¹ o'z tadqiqotida. Psixoanaliz zamonaviy va hatto postmodern davr psixologiyasida keng qo'llaniladigan yondashuvlardan biri hisoblanadi. XIX asrda Freyd tomonidan ruhiy buzilishlarni davolash nazariyasi sifatida taklif etilgan ushbu yo'nalish psixologiya faniga tub burilish olib kirgan. Keyingi davrlarda psixoanalitik nazariya asosida adabiy asarlardagi depressiya, ichki ziddiyat, noaniqlik va ruhiy kechinmalar kabi hodisalarni tahlil qilish keng yo'lga qo'yilganligi N.Ankay²² izohlab o'tgan.

L.Ruban, M.Leshchenko, I.Oliinyk, M.Petrovsky va L.Sandyha²³ hammuallifligida olib borilgan tadqiqotga ko'ra, terapevtik ertak syujeti ertakterapiyaning psixologik, psixolingvistik va lingvomadaniy imkoniyatlarini namoyon etuvchi ramziy model sifatida talqin qilinishi mumkin. Ertak markazida joylashgan sher obrazi shaxsning "himoyachi Men" konsepsiyasini ifodalaydi. U oila, hudud va qadriyatlarni asrash uchun kurashuvchi subyekt sifatida tasvirlanadi. Psixologik nuqtai nazardan, bu obraz bolalarda xavfsizlik, himoya va mas'uliyat tushunchalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Sherning oilasidan vaqtincha ajralishi va jangga kirishi bolaning hayotida uchraydigan qiyinchiliklar hamda stressli vaziyatlar bilan kurashish jarayonining ramziy ifodasidir. Syujetda antagonistik kuch sifatida tasvirlangan yo'lbars esa tahdid, hasad va agressiya kabi salbiy psixologik omillarning timsoli hisoblanadi. Uning qo'l ostidagi giyena va shoqollar ko'pligi tashqi bosim, ijtimoiy xavf yoki muammolarning murakkabligini ifodalaydi. Ushbu qarama-qarshilik bolalarda "yaxshilik va yomonlik" oppozitsiyasini tushunishga, muammoli vaziyatlarni anglash va ularga munosabat bildirish ko'nikmasini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, ertak voqealarining bosqichma-bosqich rivoji psixolingvistik jihatdan sabab-oqibat bog'lanishlarini idrok etish va narrativ tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi. Qahramonlarning his-tuyg'ulari, qo'rquv, qayg'u va umid kabi emotsional holatlar orqali bolalar o'z kechinmalarini identifikatsiya qilishni o'rganadi. Ayniqsa, sher bolalarining yig'lashi va ona sherning iztirobi tasviri bolalarda emotsional rezonans uyg'otadi hamda hissiy tajribani til orqali ifodalashni osonlashtiradi. Didaktik nuqtai nazardan, ertakning yakuniy g'oyasi qiyinchiliklarga qarshi kurash, birlik va o'zaro yordam orqali g'alabaga erishish mumkinligini ko'rsatadi.

²¹ Sağlık, G. N. (2021). Psychoanalytic theory and social work, *Journal of philosophy and social sciences*, 31, p.435-455.

²² Ankay, N. (2019). A psychoanalytic approach to Kamuran Şipal's Works. Van Centennial university, Graduate school of social sciences.

²³ Ruban, L., Leshchenko, M., Oliinyk, I., Petrovsky, M., & Sandyha, L. (2023). Fairy tale therapy for children of war. *Amazonia Investiga*, 12(68), 78–84. <https://doi.org/10.34069/AI/2023.68.08.7>

Ertaklarning kognitiv jarayonlarga ta'siri²⁴ quyidagicha ifodalanadi: Ertak matnlari murakkab ramzlar, metaforalar hamda syujet tuzilmasini o'z ichiga oladi. Ularni tinglash jarayoni diqqatni jamlashni kuchaytiradi, chunki voqealar rivojini kuzatish barqaror e'tiborni talab etadi. Shu bilan birga, qahramonlar va voqealarni eslab qolish xotira mexanizmlarining rivojlanishiga xizmat qiladi. Ertaklardagi ramziy obrazlarni shaxsiy tajriba bilan bog'lash esa tasavvur, tafakkur va yangi kognitiv sxemalarning shakllanishiga yordam beradi. Shu bilan birga, psixolingvistika til, tafakkur va ong o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rganadi. Ushbu jarayonda ertaklar muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi: ular til birliklari orqali lug'at boyligini kengaytiradi, sintaktik kompetensiya hamda matn yaratish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Semantik tahlil jarayoni orqali esa bolalar axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarni o'zlashtirib, kognitiv kategoriyalarni shakllantiradi. Bundan tashqari, psixologiya nuqtai nazaridan, ertakterapiya bir qator muhim yo'nalishlarda samarali hisoblanadi. Birinchidan, ertak qahramonlarining duch keladigan sinovlari sabab-oqibat bog'lanishlarini anglashga yordam berib, muammo yechish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ikkinchidan, ajdarho, sehrigar yoki malika kabi obrazlar orqali abstrakt tushunchalarni idrok etish kuchayadi va ramziy tafakkur shakllanadi. Uchinchidan, terapiya jarayonida qo'llaniladigan metaforalar kognitiv qayta tuzilish jarayonini faollashtiradi.

Ko'plab psixoterapevtik yondashuv²⁵larda mijozlardan "Sevimli ertagingiz qaysi?", "Qaysi qahramonni o'zingizga yaqin his qilasiz?" kabi savollar beriladi yoki ertak syujeti va ma'nosi izohlanadi. Mazkur tadqiqotda esa ushbu an'anaviy usuldan farqli ravishda, ishtirokchilarni ertakni tayyor holatda talqin qilishga emas, balki uni **faol tarzda yaratish** jarayoniga yo'naltirish tamoyili asos qilib olindi. Tadqiqot doirasida 12 yoshli 29 nafar o'quvchiga "Ustoz" mavzusida ertak yozish topshirig'i berildi. Mashg'ulot jarayonida ertakning **narrativ tuzilmasi** (syujet, personajlar, konflikt va yechim kabi tarkibiy unsurlar) metodik vosita sifatida qo'llanib, bolalar o'z hikoyalarini izchil qurishga yo'naltirildi. Mashg'ulotda eng yuqori samaradorlik kuzatilgan bosqich – o'quvchilarning ertakni **faol konstruktsiyalash** (yaratish) jarayoni bo'ldi. Bu bosqichda ular "Ertakdagi voqea nimani anglatadi?" kabi izohga yo'naltirilgan savollardan ko'ra, "Men qaysi hissiy holatni ifodalamoqchiman va buni qaysi ramz yoki harakat orqali berish mumkin?" kabi ichki tajribani modellashtirishga qaratilgan yondashuvni qo'lladilar. Natijada, o'quvchilarda shaxsiy ramziy ifoda tizimi shakllandi: ayrimlar ustoz obrazini mehribon ona timsolida, boshqalar esa donolik va qat'iyatni mujassam etgan qahramon ko'rinishida tasvirladilar. Bundan tashqari, o'quvchilarning ichki kechinmalari ertakdagi xayoliy voqealar orqali aks ettirilib, real vaziyatlardan ma'lum darajada chetlashtirilgan shaklda ifodalandi. Ushbu holat psixologiyada "emotsional masofa" fenomeni bilan izohlanib, bolalarga muammolariga tashqi pozitsiyadan nazar tashlash, ularni chuqurroq tahlil qilish hamda psixologik zo'riqishni kamaytirishga yordam berdi. Emotsional masofa kognitiv faollikni oshirib, kreativ fikrlashni rag'batlantirdi va masalalarni yangicha hal etish strategiyalarining shakllanishiga xizmat qildi. O'quvchilar ertaklarida "ustoz" konseptini turlicha interpretatsiya qildilar: kimdir uni

²⁴ Guchchiyeva, R. (2025). The significance and impact of art therapy and fairy tale therapy in the development of children and adolescents with psychosocial problems. *International Conference on Science, Education & Law*. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17505198>

²⁵ G'ochchiyeva, R. (2025). *Psychological aspect of fairytale therapy in linguistics*. Word of Philology, 4(3), 144-bet.

qat'iyatli yo'lboshchi sifatida, kimdir mehribon maslahatchi sifatida, yana boshqalar esa murakkab vaziyatlardan chiqishga yo'l ko'rsatuvchi qahramon sifatida gavdalandirdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ankay, N. (2019). *A psychoanalytic approach to Kamuran Şipal's works* (Master's thesis). Van Yüzüncü Yıl University.
2. G'ochchiyeva, R. (2025). Psychological aspect of fairytale therapy in linguistics. *Word of Philology*, 4(3), 144.
3. Guchchiyeva, R. (2025). The significance and impact of art therapy and fairy tale therapy in the development of children and adolescents with psychosocial problems. *International Conference on Science, Education & Law*. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17505198>
4. Hohr, H. (2000). Dynamic aspects of fairy tales: Social and emotional competence through fairy tales. *Scandinavian Journal of Educational Research*, 44(1), 89–103. <https://doi.org/10.1080/713696665>
5. Ruban, L. (2016). The art of creating therapeutic fairy tales. *Pedagogical sciences: theory, history, innovative technologies*, 5(59), 335–343. [In Ukrainian]
6. Ruban, L., Leshchenko, M., Oliinyk, I., Petrovsky, M., & Sandyha, L. (2023). Fairy tale therapy for children of war. *Amazonia Investiga*, 12(68), 78–84.
7. Sağlık, G. N. (2021). Psychoanalytic theory and social work. *Journal of Philosophy and Social Sciences*, 31, 435–455.